
Voyaga yetmaganlarni majburiy mehnatga jalb qilish jinoiy javobgarlikka sabab bo`ladi

O`zbekiston Respublikasining 2021 yil 12 fevraldagi "O`zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O`zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksiga o`zgartish va qo`shimchalar kiritish haqida" gi O`RQ-673-sonli Qonuni qabul qilindi.

Mazkur qonun bilan Jinoyat kodeksiga kiritilgan qo`shimchalarga ko`ra, 16 yoshdan 18 yoshgacha bo`lgan shaxsning 18 yoshga to`lmaganligi aybdorga ayon bo`lgani holda uni mulkiy manfaatdor etish orqali u bilan jinsiy aloqa qilganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilandi.

Ushbu jinoyatni sodir etgan shaxsga 2 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazoni qo`llanilishi mumkin.

Shuningdek, voyaga yetmagan shaxsni g`ayriqonuniy jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar, oqimlar, sektalar faoliyatida qatnashishga undaganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilandi.

Ushbu jinoyatni sodir etgan shaxsga 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazoni qo`llanilishi mumkin.

Qonun bilan Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi va Jinoyat kodekslariga kiritilgan o`zgartirishlarga ko`ra voyaga yetmagan shaxsni mehnatga biror-bir shaklda ma'muriy tarzda majburlagan shaxs to`g`ridan-to`g`ri jinoiy javobgarlikka tortilishi belgilandi.

(Ilgari ma'muriy jazo qo`llanilgandan so`ng takror sodir etilgan taqdirda jinoiy javobgarlik belgilangan.)

Jinoyat ishlari bo`yicha

Beshariq tuman sudining raisi

F.Sobirov

2021-03-17 19:48:00